

**POLIMERLAR KIMYOSI VA FIZIKASI INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.12.2019.K/FM/T.36.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

POLIMERLAR KIMYOSI VA FIZIKASI INSTITUTI

JUMARTOVA ULBOZOR UBAYDULLAYEVNA

**CHIZIQLI VA TARMOQLANGAN TUZILISHLI AKRIL
MONOMERLARI (SO)POLIMERLARINING SINTEZI**

02.00.06 – Yuqori molekulyar birikmalar

**KIMYO FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Jumartova Ulbozor Ubaydullayevna

Chiziqli va tarmoqlangan tuzilishli akril monomerlari
(so)polimerlarining sintezi 3

Жумартова Улбозор Убайдуллаевна

Синтез (со)полимеров акриловых мономеров линейного и
разветвленного строения. 21

Zhumartova Ulbozor Ubaydullaevna

Synthesis of (co)polymers of acrylic monomers of linear and branched
structure..... 41

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 44

**POLIMERLAR KIMYOSI VA FIZIKASI INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.12.2019.K/FM/T.36.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

POLIMERLAR KIMYOSI VA FIZIKASI INSTITUTI

JUMARTOVA ULBOZOR UBAYDULLAYEVNA

**CHIZIQLI VA TARMOQLANGAN TUZILISHLI AKRIL
MONOMERLARI (SO)POLIMERLARINING SINTEZI**

02.00.06 – Yuqori molekulyar birikmalar

**KIMYO FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.I.PhD/K725 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Polimerlar kimyosi va fizikasi institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezюме)) ilmiy kengashning veb-sahifasida (polchemphys.uz) va «ZiyoNet» axborot-ta'lim portalida (www.ziyo.net.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Bozorov Nurad Ismatovich
kimyo fanlari doktori, katta ilmiy xodim

Rasmiy opponentlar:

Rafikov Adxam Salimovich
kimyo fanlari doktori, professor

Karimov Aminjon
kimyo fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Polimerlar kimyosi va fizikasi instituti huzuridagi DSc.02/30.12.2019.K/FM/T.36.01 raqamli ilmiy kengashning 2025 yil 10 06 soat 14⁰⁰ da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100128, Toshkent shahri, Abdulla Qodiriy ko'chasi, 7^b - uy. Tel. (+99871) 241-85-94, faks: (+99871) 241-26-60, e-mail: polymer@academy.uz)

Dissertatsiya bilan Polimerlar kimyosi va fizikasi institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (46 raqami bilan ro'yxatga olingan) (Manzil: 100128, Toshkent shahri, Abdulla Qodiriy ko'chasi, 7^b - uy. Tel. (+99871)241-85-94).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «28» 05 kuni tarqatildi.

(2025- yil «28» 05 dagi № 2 raqamli reyestr bayonnomasi.)



C. Rashidova
C. Sh. Rashidova
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, k.f.d., professor, akademik

M.M. Usmanova
M.M. Usmanova
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, k.f.n., katta ilmiy xodim

A.A. Ataxanov
A.A. Ataxanov
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, t.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda dunyoda radikal polimerlanish usullaridan foydalangan holda sanoat ahamiyatiga ega polimerlarni sintez qilish muhim vazifalardan biridir. Suvda eriydigan polimerlarni sintez qilish uchun akrilamid va akril kislota kabi akril monomerlardan foydalanish alohida qiziqish uyg'otadi. Ushbu xususiyatlarga oksidlovchi-qaytaruvchi initsiirlovchi tizimlar yordamida erishiladi, bu esa polimerlanish jarayonini past haroratlarda amalga oshirishga imkon beradi.

Hozirgi vaqtda jahonda ma'lum bir tuzilishga va molekulyar massaga ega (so)polimerlarni sintez qilish, shuningdek, ularni zamonaviy tadqiqot usullaridan foydalangan holda fizik-kimyoviy tahlil qilish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu nuqtai nazardan, akril monomerlari va ularning sopolimerlari asosida yuqori eruvchanlikka ega chiziqli polimerlarni olish, yuqori samarali materiallarning yangi turlarini, shu jumladan, nanostrukturali materiallarni ishlab chiqish dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Respublikamizda mahalliy xomashyo manbalaridan foydalangan holda import o'rnini bosuvchi mahsulotlarni ishlab chiqarish va ularni amaliyotga tatbiq etish bo'yicha muhim natijalarga erishilmoqda. "Yangi O'zbekistonning 2022-2026-yillardagi taraqqiyot strategiyasi"¹ da milliy iqtisodiyotning barqarorligini ta'minlash va sanoatning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini oshirish bo'yicha vazifalar belgilab qo'yilgan. Shu nuqtai nazardan, akril monomerlari asosida chiziqli va tarmoqlangan tuzilishli (so)polimerlarni sintez qilish, shuningdek, yangi import o'rnini bosuvchi mahsulotlarni olish uchun makromolekulalar tuzilishini boshqarish usullarini ishlab chiqish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019- yil 3-apreldagi PQ-4265-sonli "Kimyo sanoatini yanada isloh qilish va uning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, 2020-yil 12-avgustdagi PQ-4805-sonli "Kimyo va biologiya yo'nalishlarida uzluksiz ta'lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalarini rivojlanishi ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VII. "Kimyoviy texnologiyalar va nanotexnologiyalar" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoni o'rganilganlik darajasi. Dunyoning qator yetakchi ilmiy markazlarida klassik va zamonaviy psevdjonli radikal polimerlanish usullaridan foydalangan holda akril monomerlarining polimerlanish bosqichida uch o'lchamli tuzilmalarini yaratish va ular asosida yuqori darajada bo'kuvchan gidrogellar olish bo'yicha ilmiy izlanishlar jadallik bilan olib borilmoqda. Chop etilgan nashrlarning ko'pchiligi asosan konsentrlangan suvli eritmalarda izotermik usulda oksidlovchi-qaytaruvchi initsiator tizimlari ishtirokida akrilamidning polimerlanishi bo'yicha

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.

eksperimental tadqiqotlar o'tkazishga bag'ishlangan bo'lib, ushbu sohadagi ilmiy yo'nalishlarni rivojlanishiga A.A. Lipin, A.V. Shibashov, A.G. Lipin, N.F.G. Wittenberg, C. Preusser, H. Kattner, M. Stach, Lacik I., R.A. Hutchinson, M. Buback, G.I. Sackmann va bir qator ilmiy maktablar hissa qo'shishgan. Organik kislotalarning suvli eritmalarida akril monomerlarini xitozan zanjirlariga radiatsion payvandlash orqali gibril gidrogellar sintez qilish va ularni amaliyotda superabsorbentlar sifatida qo'llash bo'yicha hamda poliakrilatlar va boshqa sintetik polimerlarning kompozitlari asosida elektroformlash usuli orqali nanoto'qimali gidrogellar olish bo'yicha olib borilgan ilmiy yo'nalishlarni rivojlantirishga A.Ye. Mochalova, Ye.K. Fomina, E.K. Tkachuk, L.A. Smirnova, C. Bhavsar, M. Momin, S. Gharat, Y. Liu, J. Wang, D. Cheng, R. Casasola, L.W. Honaker, E. Ranjbari, A. Mohanty va bir qator ilmiy maktablar hissa qo'shib kelmoqda.

Respublikamizda mazkur yo'nalish rivojiga akademik S.Sh. Rashidova, professorlar N.R. Voxidova, M.G'. Muxamediyev, V.O. Kudyshkin, k.f.n. R.Yu. Milusheva va boshqalar o'z ilmiy izlanishlari bilan akril monomerlari asosida (so)polimerlar sintez qilish va ularning fizik-kimyoviy hamda amaliy xossalari o'rganish bo'yicha o'z hissalarini qo'shgan.

Ushbu izlanishlarga qadar adabiyotlarda oson va kam bosqichli usullar qo'llangan holda akril monomerlari asosida chiziqli va tarmoqlangan tuzilishli sopolimerlarni sintez qilishning ilg'or usullarini ishlab chiqish bilan bog'liq bir qator ilmiy tadqiqot ishlari yetarlicha olib borilmagan. Bu o'z navbatida ushbu yo'nalishda chuqur va amaliy ishlarni amalga oshirish, suvda eruvchan akril polimerlarni, xususan, yuqori molekulyar massali poliakrilamidni sintez qilish, hamda suvda yaxshi eruvchanligini saqlab qolgan holda molekulyar xususiyatlarni boshqarishning samarali usullarini o'rnatish muammosiga tegishli. Shuningdek, hozirgi kunga qadar suvda eruvchan poliakrilamidga asoslangan murakkab nanotuzilishli tizimlarni olish va ularning tuzilishini o'rganishga qaratilgan tadqiqotlar yaratish istiqbollari yuzaga keltiradi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishi rejaları bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Polimerlar kimyosi va fizikasi instituti O'zbekiston-Belarus IL-4821091571 "Polisaxaridlar va poliakrilatlar asosida gibril polimer superabsorbentlarini olishning yangi usullari" (2022-2024 yy.) va FZ-4721055613 "Yuqori molekulyar tizimlar asosida nanotolalar hosil bo'lishining asosiy jihatlari: shartlar, strukturaning shakllanishi, xususiyatlari" (2022-2027 yy.) mavzusidagi fundamental loyihalar doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi radikal polimerlanishni qo'llash bilan akril monomerlari asosida chiziqli va tarmoqlangan tuzilishli (so)polimerlarni sintez qilish, ularning fizik-kimyoviy xossalari o'rganish hamda amalda qo'llash imkoniyatlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

radikalli polimerlanish asosida suvli eritmada chiziqli akrilamid polimerlarini sintez qilish, sintez jarayoniga turli omillarning ta'sirini tahlil qilish;

akrilamidning xitozan bilan payvand sopolimerlanishi va sopolimerlarning molekulyar massasiga xitozanning ta'sirini aniqlash;

akril kislota va xitozanning uch o'ldamli sopolimerlarini sintez qilish, sopolimerlanish jarayonining kinetikasini tadqiq etish;

elektrospinning usuli bilan poliakrilamid asosida nanotolalarni olish imkoniyatlarini o'rganish;

pilot laboratoriyada akrilamidga asoslangan flokulyantlar sintezi uchun maqbul sharoitlarni ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti akrilamid, akril kislota, xitozan (*Bombyx Mori* va krab qobig'i xitozani) va ulardan olingan makromolekulyar ob'ektlar hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti akrilamidning radikal polimerlanish mexanizmini o'rganish, chiziqli va tarmoqlangan tuzilishli (so)polimerlarini sintez qilish, ularning fizik va kimyoviy xossalarini o'rganishdan iborat.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotlarni olib borishda zamonaviy atom kuchlanishli mikroskop (AKM), IQ-Furye va UB-spektroskopiya, rentgenostrukturaviy tahlil, yorug'lik nurlarining dinamik tarqalishi (DLS) fizik-kimyoviy tahlil usullari, analitik titrlash va viskozimetrik usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

oksidlovchi-qaytaruvchi initsiatorlar ishtirokida akrilamidning radikalli polimerlanishining asosiy qonuniyatlari o'rganilgan va suvda eruvchan poliakrilamidni olish jarayonida pH muhiti va eritmaning zichligi muhim rol o'ynashi isbotlangan;

akrilamid xitozan payvand sopolimerlanishining molekulyar massasiga zanjirning o'sish zonasida akril monomerleri konsentratsiyasining oshishi ta'siri ko'rsatilgan;

molekulyar dinamika usullaridan foydalangan holda xitozan ishtirokida akrilamidning radikalli sopolimerlanish mexanizmi nazariy tahlil qilingan bo'lib, o'rganilgan sharoitlarda nafaqat, xitozandagi gidroksil, balki amino- guruhlarida hosil bo'lgan faol markazlarga ham akrilamid zvenolarining ma'lum ketma-ketlikda birikishi isbotlangan;

ilk bor sintez qilingan poliakrilamid va texnik ugleroddan foydalanib, polimerli tizimlar olingan va ular asosida nanotolalar shakllantirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

o'tkazilgan tadqiqotlar "Navoiyazot" AJda ishlab chiqarilgan monomerning suvli eritmasidan yuqori molekulyar massali poliakrilamidni olishning shart-sharoitlarini belgilashga imkon bergan;

suvda yaxshi eruvchan polimerlarni sintezini ta'minlaydigan eng muhim ko'rsatkichlar sifatida eritmaning pH qiymati va zichligini nazorat qilish mumkinligi isbotlangan;

sintez qilingan poliakrilamid sanoat oqava suvlarini tozalashda noionli flokulyant sifatida qo'llanilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Akril monomerlarining chiziqli va tarmoqlangan (so)polimerlarini sintez qilish va fizik-kimyoviy xossalarini o'rganish bo'yicha tajriba natijalari zamonaviy usullardan foydalangan holda isbotlangan. Olingan ilmiy va amaliy natijalar Respublika va xalqaro ilmiy anjumanlarda muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, olib borilgan tadqiqotlar akril monomerlarining xitozan bilan gomopolimerlanishi va sopolimerlanish jarayonlarining mexanizmlarini belgilashga va ularni boshqarishning samarali usullarini ishlab chiqishga imkon berdi. Shuningdek, xitozanning poliakrilamid sinteziga ta'siri aniqlandi va sintez qilingan gomo- va sopolimerlarning xususiyatlari tadqiq etildi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, olingan fundamental natijalar “Navoiyazot” AJda ishlab chiqarilgan akrilamidning suvli eritmasidan chiziqli va yuqori molekulyar massali noionli poliakrilamidni olish uchun sharoit yaratish imkonini berdi. Eritmaning pH va zichligini boshqarish orqali polimerning suvda yuqori eruvchanligiga erishish mumkin ekan. Poliakrilamid asosida uglerod nanozarralari bo‘lgan nanotizimlar olindi va elektrospinning usuli bilan murakkab tizimlar asosida nanotolalarni olish imkoniyatlari ko‘rsatildi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Chiziqli va tarmoqlangan tuzilishli akril monomerleri (so)polimerlarining sintezi bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

“Navoiyazot” AJda ishlab chiqarilgan akrilamidning suvli eritmasi asosida flokulyant ishlab chiqarish texnologiyasi ishlab chiqilgan (“Navoiyazot” AJ ning 29 sentabr 2023-yilda KS va MHP ishlab chiqarishning 701- sexida yangi turdagi mahsulotlar ishlab chiqarishni tashkil etish bo‘yicha texnik yig‘ilish bayoni). Natijada, yuqori molekulyar massali, suvda yuqori eruvchanlikka ega poliakrilamid sintez qilishga erishilgan.

Olingan tadqiqot natijalaridan “Yuqori molekulali birikmalar va plastmassalar texnologiyasi” kafedra 60710100-Kimyoviy texnologiya (yuqori molekulali birikmalar) yo‘nalishida “Yuqori molekulali birikmalar kimyosi va fizikasi” va “Monomerlarni sintez qilish usullari” fanlarini o‘qitish jarayonida fan dasturi va sillabuslar ishlab chiqishda foydalanilgan (Toshkent kimyo-texnologiya institutining 2024 yil 2 dekabrda 1/04-3103-son ma’lumotnomasi). Natijada, talabalarning fan bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini shakllantirishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari jami 10 ta, jumladan, 6 ta xalqaro va 4 ta Respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma’ruza qilinib, muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 15 ta ilmiy ish chop etilgan, bulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan, 3 ta Respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilish va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 101 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, ob'ekti va predmeti belgilangan, O'zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, uning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etish istiqbollari bo'yicha xulosa qilingan hamda nashr etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Akril monomerlarining (so)polimerlarini sintez qilishga yangicha yondashuvlar va ularning amaliy ahamiyati”** nomli birinchi bobida akril monomerlarining radikal polimerlanishi, akril monomerlarining tabiiy polisaxaridlar bilan sopolimerlanish muammosining zamonaviy holati, shuningdek, akril monomerlariga asoslangan polimer mahsulotlari bo'yicha adabiyotlarni ko'rib chiqib, tahlil qilishga asoslangan. Bundan tashqari, flokulyantlarni, shuningdek, nanotolalarni olish muammosiga alohida e'tibor qaratilgan.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqot ob'ektlari va usullari”** nomli ikkinchi bobida chiziqli va tarmoqlangan tuzilishli akril monomerlari (so)polimerlarini sintez qilish uchun kerakli xom ashyo va materiallar, qayta kristallash usuli bilan insiatorlarni tozalash, monomerlarni tanlash va ularni tozalash usullari, chiziqli va tarmoqlangan tuzilishli akril monomerlari (so)polimerlarining sintezi, akril monomerlarining (so)polimerlari tuzilishini va fizik-kimyoviy xossalarni aniqlash usullari bo'yicha ma'lumotlar bayon etilgan.


Dissertatsiyaning **“Akril monomerlarining radikal polimerlanishi asosida chiziqli va tarmoqlangan tuzilishli (so)polimerlar sintez qilish, ularning xossalari va amaliy ahamiyati”** nomli uchinchi bobida akrilamidning radikal polimerlanish qonuniyatlari, uning xitozan bilan payvand sopolimerlanishi, xitozan va akril monomerlarining mumkin bo'lgan o'zaro ta'sir mexanizmlari, shuningdek, poliakrilamidga asoslangan murakkab tizimlarni olish bo'yicha tadqiqotlar amalga oshirilgan. “Navoiyazot” AJ zavodining laboratoriyasi sharoitida monomerning texnik suvli eritmasidan poliakrilamidni sintez qilish va uni oqava suvlarni tozalash maqsadida noionli flokulyant sifatida qo'llash imkoniyatlari bo'yicha olingan natijalar hamda ulardan kelib chiqqan xulosalar taqdim etilgan.

Sintez azot atmosferasida oksidlovchi-qaytaruchi initsiatorlar ammoniy persulfat $((\text{NH}_4)_2\text{PS})$ va natriy tiosulfatlar (NaTS) dan foydalanib amalga oshirildi. Sintez jarayonida reaksiya aralashmaning kinematik qovushqoqligi kapillyarli viskozimetr yordamida kuzatib borildi.


1-rasmda turli xil initsiator konsentratsiyalarida sintez vaqtiga bog'liq holda reaksiya aralashma qovushqoqligining o'zgarishlari keltirilgan bo'lib, o'zgarmas harorat va o'zgarmas monomer konsentratsiyasida initsiator miqdorining oshishi bilan reaksiyaning tezlashganligini ko'rish mumkin.

2-rasmda esa turli xil haroratlarda sintez vaqtiga bog'liq holda kinematik qovushqoqlikning o'zgarishlari keltirilgan bo'lib, konversiyaning dastlabki davrida sintez vaqtiga bog'liq holda qovushqoqlikning ortishi chiziqli emas. Bu holatlar

polimerlanish jarayoni klassik radikal polimerlanish qonuniyatlariga mos holda borishini isbotlaydi.




1-rasm. Turli xil initsiator konsen-ratsiyalarida sintez vaqtiga bog'liq holda reaksiya aralashma qovushqoqligining o'zgarishlari: $[(\text{NH}_4)_2\text{PS}]/[\text{NaTS}] = 1,0 \times 10^{-4}/2,0 \times 10^{-5}$ mol/l (1), $2,5 \times 10^{-4}/3,0 \times 10^{-5}$ mol/l (2), $5 \times 10^{-4}/5 \times 10^{-5}$ mol/l (3). $[\text{AA}] = 1,5$ mol/l, $T = 30^\circ\text{C}$.




2-rasm. Turli xil haroratlarda sintez vaqtiga bog'liq holda reaksiya aralashmasi qovushqoqligining o'zgarishi. 20°C (1), 25°C (2), 30°C (3), 35°C (4), $[(\text{NH}_4)_2\text{PS}]/[\text{NaTS}] = 1,0 \times 10^{-4}/2,0 \times 10^{-5}$ mol/l, $[\text{AA}] = 1,5$ mol/l.

1- va 2-rasmlardan ko'rinib turibdiki, reaksiya aralashma qovushqoqligining oshishi sintez vaqtiga bog'liq holda chiziqli emas. Konversiya darajasi 20-25% ga yetganda, reaksiya aralashmaning qovushqoqligi keskin darajada oshganligini kuzatish mumkin. Ushbu holat, ehtimol, gel-effekt hosil bo'lishi tufayli polimerlanish tezligining oshishi bilan bog'liq.

Akril monomerlarining suvli eritmalarida radikal polimerlanishi uchun polimerlanish jarayonining tezligi va tuzilishiga ta'sir qiluvchi eng muhim ko'rsatkichlardan biri bu- muhitning pH qiymati hisoblanadi. Shundan kelib chiqqan holda, 3-rasmda turli xil pH qiymatlarida sintez vaqtiga bog'liq holda reaksiya muhit qovushqoqligining o'zgarishlari keltirilgan bo'lsa, 4-rasmda eritmaning pH o'zgarmaganda, turli xil monomer konsentratsiyalarida vaqtga bog'liq holdagi o'zgarishlari ko'rsatilgan. Polimerlanish jarayonlari initsiatorlarning kichik konsentratsiyalarida uzoq vaqt davom etishini e'tiborga olgan holda, tajribalar nisbatan yuqori konsentratsiyalarda amalga oshirildi.



3-rasm. Monomerning turli xil pH qiymatlarida sintez vaqtiga bog'liq reaksiya aralashma kinematik qovushqoqligining o'zgarishi: pH-5,2(1), pH-6,4 (2), pH-7,2 (3), pH-8,1(4), pH-8,96(5). $[\text{M}] = 1$ mol/l, $[(\text{NH}_4)_2\text{PS}/\text{NaTS}] = 1 \times 10^{-3}/1 \times 10^{-4}$ mol/l, $T = 30^\circ\text{C}$.



4-rasm. Reaksiyon aralashma kinematik qovushqoqligining turli xil monomer konsentratsiyalariga bog‘liq sintez vaqti bo‘yicha o‘zgarishlari: 0,5 mol/l(1), 1,0 mol/l (2), 1,5 mol/l (3), $[(\text{NH}_4)_2\text{PS}/\text{NaTS}] = 1 \cdot 10^{-3}/1 \cdot 10^{-4}$ mol/l, $[\text{pH}] = 7,2$, $T = 30^\circ\text{C}$.


Yuqoridagi natijalardan ko‘rinib turibdiki, gel effektining boshlanishi reaksiyon muhitning pH darajasiga sezilarli darajada bog‘liq va bu bog‘liqlik monoton emas, balki murakkab xarakterga ega. Past pH va yuqori haroratlarda polimer zanjirlarini amid ko‘priklari $-\text{C}(\text{O})-\text{NH}-\text{C}(\text{O})-$ hosil qilish uchun o‘zaro bog‘lash mumkin.

Eritma muhiti pH darajasining oshishi bilan amid guruhlarining gidrolizi, so‘ngra ularning ionlanishi sodir bo‘ladi. Bu jarayon bir xil zaryadlangan manfiy ionlarning (monomerda ham, oxirgi radikalida ham) hosil bo‘lishi bilan birga keladi, bu ularning o‘zaro itarilishiga va shuning uchun polimerlanish tezligining kamayishiga olib keladi. Kuchli ishqoriy muhitda NH_4^+ ionlari nafaqat o‘zaro ta’sir qiluvchi tarkibiy qismlarning o‘zaro itarilishini (ekranlash effekti) ta’minlaydi, balki ularning o‘zaro ta’sirini osonlashtiradi, buning natijasida makromolekulalar zanjirining o‘shish reaksiyasi tezligi oshadi.

Polimerlanishning kinetik qonuniyatlari gravimetrik usul bilan hisoblangan natijalar asosida olingan. Polimerlanish reaksiyasining o‘rtacha tezligi sintez boshlanganidan yuqori konversiya darajasiga yetguncha vaqt oralig‘ida hisoblab chiqilgan. Polimerlanishning o‘rtacha tezligi haroratning oshishi bilan, shuningdek, radikal polimerlanishning klassik kinetik qonuniyatlariga mos keladigan initsiator va monomer konsentratsiyasining oshishi bilan ortadi.

Arrenius tenglamasi asosida polimerlanishning faollanish energiyasi (E) hisoblab chiqilgan bo‘lib, u 58 kJ/molni tashkil etdi. Bunday past qiymatlar ($(\text{NH}_4)_2\text{PS}/\text{NaTS}$ tizimidagi boshlang‘ich energiyaning kichik qiymatlari bilan bog‘liq. Tizimda ammoniy persulfatning mavjudligi initsiirlanish energiyasi qiymatlarini mos ravishda 50-84 kJ/mol gacha pasayishiga olib keladi va polimerlanish jarayoni faollashuvining umumiy energiyasi kamayadi. Bu holat sintezni $20-30^\circ\text{C}$ harorat oralig‘ida amalga oshirishga imkon beradi.

Sintez qilingan polimerlarning tuzilishini identifikatsiyalash IQ-Furye spektroskopik usul bilan amalga oshirildi (5-rasm).



5-rasm. Akriamid (1) va poiakrilamid (2) IQ-Furye spektr egrilari.

AA spektrida 3355, 3200, 1680 va 1350 cm^{-1} dagi yutilish sohalari birlamchi amid $-\text{CONH}_2$, $-\text{NH}$ uchun, $\text{C}=\text{O}$ va $\text{C}-\text{N}$ ga mos keladi. Bundan tashqari 2820 cm^{-1} mos ravishda $-\text{CH}$ va 1617 cm^{-1} deformatsion $-\text{NH}_2$ guruhlariga mos kelganligi aniqlandi. Akrilamid bilan solishtirganda, PAA spektrida vinil guruhiga xos bo'lgan 961 cm^{-1} dagi yutilish sohalari yo'qoladi. Birlamchi amid $-\text{CONH}_2$ va birlamchi amin $-\text{NH}_2$ guruhlarining yutilishi 3470 va 1665 cm^{-1} da, shuningdek, 1452 cm^{-1} da $\text{C}-\text{N}$ guruhlarining yutilish sohasi mavjud. 1040 - 400 cm^{-1} gacha PAA spektrida hech qanday yutilish sohalari kuzatilmaganligi, reaksiyaga kirishmagan monomerdan to'liq tozalanganligini isbotlaydi.

Bundan tashqari, PAA molekulyar massasiga sintez sharoitlarining ta'siri o'rganildi. 1-jadvalda turli pH qiymatlarida sintez qilingan PAA xarakteristik qovushqoqlik va MM qiymatlari keltirilgan bo'lib, PAA eritmasining xarakteristik qovushqoqligi 30°C da 1 N NaNO_3 suvli eritmasida aniqlangan.

1-jadval.

Turli xil pH da poliakrilamid molekulyar massasining o'zgarishlari. $[\text{M}]=1,0$ mol/l, $[(\text{NH}_4)_2\text{PS}]=1*10^{-3}$ mol/l, $[\text{NaTS}]=1*10^{-4}$ mol/l, $T = 30^\circ\text{C}$.

T/r	pH	d, g/ml	$[\eta]$, dl/g	$M, *10^5$
1	5,0	1,004	2,48	6,19
2	6,4	1,0035	2,94	8,02
3	7,2	1,003	3,54	10,6
4	8,1	1,002	2,75	7,24
5	9,0	1,001	1,85	3,97

1-jadvaldagi tadqiqot natijalari eritmaning pH qiymati neytral bo'lganda polimer MM sining yuqori qiymatga teng bo'lganligini ko'rsatadi.

2-jadvalda monomerning turli xil konsentratsiyalarida PAA molekulyar massasining o'zgarishiga oid ma'lumotlar keltirilgan.

2-jadval.

Turli xil monomer konsentratsiyalarida sintez qilingan poliakrilamidning molekulyar massaviy qiymatlari. $\text{pH}=7,0$, $[(\text{NH}_4)_2\text{PS}]=1*10^{-3}$ mol/l, $[\text{NaTS}]=1*10^{-4}$ mol/l, $T=30^\circ\text{C}$.

T/r	$[\text{M}]$, mol/l	d, g/ml	$[\eta]$, dl/g	$M, *10^5$
1	0,5	1,000	2,33	5,63
2	1,0	1,003	3,54	10,6
3	1,5	1,005	3,91	12,3

Jadvaldagi ma'lumotlar tahlil qilinganda, monomerning turli xil konsentratsiyalarida PAA molekulyar massasining monomer konsentratsiyasiga mos ravishda oshib borganligiga guvoh bo'lish mumkin.

Jadvaldagi ma'lumotlarni tahlil qilinganda shuni ta'kidlash mumkinki, PAA molekulyar massasi monomer konsentratsiyasining oshishi bilan ortadi, bu radikal polimerlanishning klassik kinetik qonuniyatlariga mos keladi. Ushbu natijalar turli omillarning AA polimerlanish jarayoniga ta'sirini aniqlashga imkon berdi.

Molekulyar massaning eng katta qiymatlari neytral muhitda polimerlanish vaqtida sodir bo'ladir. Keyingi tadqiqotlar xitozanning akrilamid bilan payvand sopolimerlanish jarayoniga ta'sirini o'rganishga qaratilgan.

Akrilamidning xitozanga payvand sopolimerlanishi. Disertatsiya ishida xitozanning (XZ) AA polimerlash jarayoniga ta'siri o'rganildi. Tadqiqot ishida O'zR FA PKFda tut ipak qurti g'umbagidan olingan *Bombyx Mori* xitozanidan foydalanilgan. XZning molekulyar massasi 110 kDa va deatsetillanish darajasi 85%ni tashkil etadi. Sintez quyidagicha amalga oshirildi. Xitozan 0,1 M HCl da magnitli aralashtirgichda 6-8 soat davomida eritildi. Reaksiya aralashmasidagi XZ kontsentratsiyasi: 0,03-0,3 massa.% oralig'ida. Eritma kolbaga joylashtirildi va 30 daqiqa davomida gazsimon azot bilan inert muhit hosil qilindi, shundan so'ng eritmaga initsiatorlar va AA suvli eritmasi ketma-ket qo'shildi. Polimerlanish 25-30°C harorat oralig'ida, 120 daqiqadan 240 minutgacha amalga oshirildi va hosil bo'lgan reaksiya mahsuloti distillangan suv bilan eritildi va aseton-etanolning 2:1 nisbatli aralashmasida cho'ktrildi, cho'kma vakuum ostida doimiy massaga kelguncha quritildi.

3-jadvalda 25°C va 30°C XZ ning turli xil konsentratsiyalarida sintez qilingan PAA ning xarakteristik qovushqoqligini aniqlash natijalari keltirilgan.

3-jadval.

Keltirilgan qovushqoqlikning AA:XZ sopolimerlari konsentratsiyasiga bog'liqligi.


T/r	XZ, %	[η], dl/g.	XZ, %	[η], dl/g.
	25°C		30°C	
1	0	5,23	0	5,52
2	0,05	5,42	0,05	5,86
3	0,1	6,14	0,1	6,64
4	0,15	7,43	0,15	8,03
5	0,2	9,05	0,2	10,07
6	0,25	5,86	0,25	6,25

Olingan ma'lumotlarga ko'ra, XZ ishtirokida olingan PAAning xarakteristik qovushqoqligi, XZ qo'llamasdan sintez qilingan PAA xarakteristik qovushqoqligidan ancha yuqori bo'lganligiga guvoh bo'lish mumkin. Buning ustiga, XZ konsentratsiyasini 0,2% gacha ko'tarish bilan xarakteristik qovushqoqlik qiymatining deyarli ikki karra ortishi kuzatildi. Oz miqdordagi XZ qo'shilganda polimer MM oshishi qisman XZ ishtirokida reaksiyon aralashma qovushqoqligining oshishi bilan izohlanishi mumkin, bu esa tegishli ravishda zanjir uzilish konstantasining pasayishiga va sintez qilingan sopolimer molekulyar massasining oshishiga olib kelishi mumkin. Darhaqiqat, XZ makromolekulalarini eritishda reaksiyon aralashmaning qovushqoqligi 2-3 baravar oshadi. Biroq, radikal polimerlanishning ma'lum qonuniyatlariga asoslanib, reaksiyon muhit qovushqoqligining bunday o'sishi uzilish konstantasining qiymatlariga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatishi mumkin emas deb ta'kidlash mumkin. Ushbu ta'sirni bir qator monomerlarning XZ ga payvand sopolimerlanishi uchun avval bir qator mualliflar tomonidan kuzatilgan va muvozanat dializ usuli bilan tasdiqlangan

payvand zanjirning o‘shish zonasida monomer konsentratsiyasining mahalliy o‘shishi nuqtai nazaridan tushuntirish ehtimoli ko‘proq.

XZ molekulasidagi gidroksil va amin guruhlarning vodorod atomlari yuqori harakatchanlikka ega, bu initsiirlovchi radikal bilan o‘zaro ta’sirga yordam beradi va XZ molekulasida monomerning qo‘sh bog‘i bilan o‘zaro ta’sir qila oladigan faol markaz hosil bo‘lishiga olib keladi, bu esa akrilamid bo‘g‘inlarining ketma-ketligini yon zanjirlar shaklida payvandlashni ta'minlaydi.

Ushbu taxminni isbotlash maqsadida sintez qilingan sopolimerlarning tuzilishini IQ-Furye spektroskopik usul yordamida tahlil qilindi (6-rasm).




6-rasm. AA (1), XZ (2) va XZ-AA payvand sopolimerining (3) IQ-Furye spektrlari.

XZ spektrida esa $3600\text{--}3150\text{ cm}^{-1}$ oralig‘ida keng yutilish sohasini ko‘rish mumkin, bu -OH, -NH va molekularlararo vodorod bog‘lanishlarning valent tebranishlari bilan bog‘liq. $2920\text{--}2880\text{ cm}^{-1}$ oraliqdagi yutilish sohalari -CH guruhining valent tebranishlari uchun xos. 1660 cm^{-1} va 1582 cm^{-1} yutilish sohalari mos ravishda, amid-I va amid-II ga to‘g‘ri keladi. 1421 cm^{-1} da -CH₂ guruhining valent tebranishlariga, 1200 cm^{-1} - 900 cm^{-1} oraliqlardagi yutilish sohalari qo‘shimcha polisaxaridlar uchun xos bo‘lgan C-O-C, NH, C-C guruhlarining deformatsion tebranishlariga mos keladi.

XZ-AA payvand sopolimeri spektrida $3600\text{--}3100\text{ cm}^{-1}$ oralig‘idagi yutilish sohalari OH va NH guruhlari uchun xarakterli hamda molekularlararo vodorod bog‘lanishlar uchun xos bo‘lib, bu xitozanga akrilamidning payvand sopolimerlanishi ham -N, ham -O bog‘larining almashinishidan sodir bo‘lganligini isbotlaydi. $2920\text{--}2880\text{ cm}^{-1}$ oraliqdagi yutilish sohalari -CH va -CH₂ guruhlarining valent tebranishlari uchun to‘g‘ri keladi. 1665 cm^{-1} amiddagi C=O guruhining deformatsion tebranishlariga, 1452 cm^{-1} dagi yutilish sohasi esa akrilamidning CN guruhlari deformatsion tebranishlari uchun to‘g‘ri keladi.

XZ bilan payvandlangan AA sopolimerlari va PAAning molekulyar massaviy taqsimlanishini ikki yoqlama yorug‘lik sinishi (DLS) usuli yordamida tadqiq etildi (7-rasm).


7-rasmda olingan ma'lumotlar xitozanning juda oz miqdordagi konsentratsiyasi ham PAA makromolekulasining diffuziyasiga sezilarli darajada ta’sir etishini tasdiqlaydi. Bu xitozan makromolekularining qattiqligi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin, chunki bu poliakrilamid makromolekularining konformatsion o‘tishlarini qiyinlashtiradi va bu zarracha gidrodinamik radiusining oshishiga olib keladi.



7-rasm. Poliakrilamid (1, 2) va xitozanga AA payvandlangan sopolimerlarning molekulyar massaviy taqsimoti egrilari. Xitozan konsentratsiyasi: 0,15% (3), 0,20% (4).

Diffuziya bo'yicha tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, xitozan bilan "payvandlash" polimerning diffuziya koeffitsientini sezilarli darajada kamaytirdi. Bu makromolekulalar hajmining oshishi va shunga mos ravishda ular harakatchanligining kamayishi bilan bog'liq. Shuningdek, gomopolimerga nisbatan makromolekulalar harakatchanligining pasayishi sopolimerlarning molekulyar massasining oshishi olib keladi.

UB- spektroskopik tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, XZ va PAAning payvand sopolimerlanishi natijasida yutilish chiziqlarining katta to'liqin uzunligi tomonga siljishi va ularning kengayishi kuzatiladi (8-rasm). Bu karbonil guruhidagi kislorod atomining bog'lanmagan elektron juftlari orbitalining energiyasi pasayishiga olib keladigan konyugat bog'lanishlar mavjudligi bilan bog'liq. Chunki bunda quyi erkin molekulyar orbitalning (QBMO) energiyasi kamayadi va shuning uchun $n-\pi^*$ o'tishining energiyasi kamayganligi sababli, bu esa yutilish chiziqlarining uzoq to'liqin uzunligi tomonga siljishiga olib keladi.



8-rasm. Poliakrilamid (1, 2) va xitozanga AA payvand sopolimerlarning UB-spektr egrilari. XZ konsentratsiyasi: 0,15% (3), 0,20% (4).


Xitozan bilan poliakrilamidning payvand sopolimerida C=O bog'lanishining elektron o'tishlari hamda azot va kislorod atomlarining bo'linmagan elektron juftlari ikkita turdagi $\pi-\pi^*$ va $n-\pi^*$ bog'lari bilan kuzatiladi, bu esa intensivligiga qarab farqlanadi. Bu, elektron o'tishlarining tanlash qoidalariga bog'liq. 190-230 nm to'liqin uzunligida elektronlarning $\pi-\pi^*$ o'tishlari bilan bog'liq yutilish chiziqlari kuzatiladi. Shuningdek, makromolekula zanjirida konyugatsion bog'lanishlarning ko'payishi bilan batoxromik siljish uzunroq to'liqin uzunligi tomonga qarab suriladi. 240-290 nm to'liqin uzunligidagi yutilish chizig'i azot va kislorod atomlarining bo'linmagan elektron juftlarining $n-\pi^*$ elektron o'tishlari bilan bog'liqligini anglatadi.

Shunday qilib, XZning akrilamidning radikal polimerlanishiga ta'siri aniqlandi. Reaksiya aralashmada oz miqdorda bo'lsa ham XZ mavjud bo'lishi suvda eruvchan makromolekulalarni olishda sopolimerning molekulyar massasini oshirishga yordam berar ekan. Ushbu ta'sir XZ ishtirokida akril monomerlari konsentratsiyasining lokal o'sishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Ushbu hodisa

amaliy maqsadlarda, xususan, noionli flokulyant bo'lgan yuqori molekulyar massali PAA hosil qilish uchun qo'llanilishi mumkin.

Akril kislotaning xitozanga payvand sopolimerlanishi. Tadqiqotlar, shuningdek, akril monomerlarning boshqa vakili- akril kislotaning (AK) payvand sopolimerlanish jarayoniga krab XZ ning o'xshash ta'sirini ko'rsatdi.


Krab XZ konsentratsiyasiga bog'liq holda reaksiyon muhit qovushqoqligining o'zgarishlari o'rganildi. 9-rasmda keltilgan natijalar shuni ko'rsatdiki, reaksiyon aralashmada krab XZ konsentratsiyasining oshishi bilan qovushqoqlikning oshishi va keyinchalik uch o'lchamli strukturaning shakllanishi sodir bo'ladi. Reaksiyon muhitda krab XZ konsentratsiyasini ko'payishi, qovushqoqlikning oshish jarayonini tezlashtiradi.




9-rasm. Krab XZning turli xil konsentratsiyalarida reaksiyon aralashma kinematik qovushqoqligining sintez vaqtiga bog'liqligi. Krab XZ= $1,77 \times 10^{-3}$ mol/l (1), $4,43 \times 10^{-3}$ mol/l (2), $8,87 \times 10^{-3}$ mol/l(3), $1,33 \times 10^{-2}$ mol/l (4). AK = $1,25$ mol/l, KPS= $6,5 \times 10^{-3}$ mol/l, T= 60°C .

Xitozan makromolekulasi akril monomerlari bilan payvand sopolimerlanish jarayonida faqat asosiy zanjir bo'lib qolmay, balki reaksiyon aralashmaning boshqa komponentlari bilan ham kimyoviy o'zaro ta'sirlarda, xususan, krab XZning funksional guruhlari (-NH₂, -OH) va AK karboksil guruhi o'rtasidagi yetarlicha kuchli o'zaro ta'sirlar mavjudligidan dalolat beradi. Ushbu o'zaro ta'sirlar AKning reaksiyon muhitida konsentratsiya gradientining paydo bo'lishiga olib keladi va zanjirning o'sish zonasida akril monomerlari molekularining yuqori konsentratsiyali maydoni hosil bo'ladi. Shubhasiz, bu hodisa AK va AA ning payvand sopolimerlanishiga xosdir va PAA bilan taqqoslaganda sopolimerlarning molekulyar massasi oshishining sabablaridan biri bo'lishi mumkin.

Xitozan va akril monomerlarning mumkin bo'lgan o'zaro ta'sir mexanizmlari. Ushbu bo'limda molekulyar dinamika va kvant-kimyoviy hisoblashlardan foydalangan holda XZ va AAning o'zaro ta'sirining radikal polimerlanish mexanizmi nazariy tahlil qilish maqsadida qo'llanildi.





Taqdim etilgan sxemada XZ bo'g'imining optimallashtirilgan geometrik tuzilishi NBO (NC) konsentratsiyalangan manfiy zaryad bilan ko'rsatilgan: N atomida ($NC(N) = -0,925$), O₃ atomida ($NC(O_3) = -0,781$) va O₅ atomida ($NC(O_5) = -0,791$). Kimyoviy reaksiya natijasida kamroq manfiy zaryadga ega atomdan mos vodorod atomining ajralishi osonroq bo'lib, XZ radikalini (RXZ) hosil qiladi. Shuning uchun quyidagi radikallar o'rganildi: RXZ(N) (-NH₂) guruhidan vodorod atomini ajralishi, reaksiya (1)); RXZ(O₃) - uchinchi kislorod atomining gidroksil guruhidan vodorod atomini ajratish natijasida hosil bo'lgan radikal (3-reaksiya); RXZ(O₅)- beshinchi kislorod atomining gidroksil guruhidan vodorod atomini ajratish natijasida hosil bo'lgan radikal (2-reaksiya). Geometriya optimallashtirishiga asoslangan tebranish chastotalarining tegishli hisob-kitoblariga ko'ra, RXZ(O₅) ning Gibbsning erkin energiyasi 3,5 kJ/mol ni tashkil qiladi, bu RXZ(O₃) ga qaraganda pastroq va RXZN ga qaraganda 2,7 kJ/mol pastroq. Shunday qilib, RXZ(O₅) ko'rib chiqilgan radikallar orasida ko'proq termodinamik barqarorlikka ega va shuning uchun monomerni XZga payvandlashning eng yuqori ehtimoliy markazi vodorod atomining uglerod atomidagi 5-gidroksil guruhidan ajralishi natijasida hosil bo'lgan radikalidir.


Poliakrilamid ishtirokida murakkab tizimlarni olish va ular asosida nanotolalarni shakllantirish. Nanotolalarni olish uchun PAA ni tanlash oqilona ko'rinadi, chunki turli xil tabiatli moddalarning keng doirasi bilan o'zaro ta'sir o'tkaza oladigan funksional guruhlari mavjudligi sababli, ushbu polimer nanotolalar tarkibiga organik va noorganik tabiatli birikmalarni, shuningdek, tola hosil qilishga moyil bo'lmagan boshqa polimerlarni jalb qilishga imkon beradi. Poliakril polimerlarini o'z ichiga olgan murakkab tizimlar asosida nanotolalarni shakllantirish bo'yicha bunday tadqiqotlar nafaqat ilmiy nuqtai nazardan, balki olingan materiallarning mumkin bo'lgan amaliy qo'llanilishi nuqtai nazaridan ham katta qiziqish uyg'otadi. Tajribalarni amalga oshirish uchun sanoatda ishlab chiqarilgan poliakrilamid "PRAESTOL-2500" ("Metakhim" MCHJ) va dissertatsiya tadqiqotlari asosida sintez qilingan PAA va texnik uglerodan (OMCARB P72 markali, "Omsktehuglerod" MCHJ) foydalanildi.

PAA eritmasi PAA:texnik uglerod kompozitlarini olish uchun ham foydalanilgan. Buning uchun polimerning suvli eritmasi texnik uglerod (PAA massasiga nisbatan 20-40 massa% bilan 30 daqiqa davomida ultratovushli dispergator ta'sirida aralashtirilgan. Texnik uglerodning 10-50 massa ulushini o'z ichiga olgan va ultratovush yordamida ishlov berilgan suvli PAA eritmasi xona haroratida bir oy davomida saqlanganda, texnik uglerodning cho'kishi kuzatilmagan, bu eritma barqarorligini saqlab qolganligini ko'rsatadi. Olingan barqaror eritmalardan plyonkalar quyildi, ular IQ- Furiye spektroskopiya va AKM usullari bilan tekshirildi.

PAA:texnik uglerod kompozitsiyalari plonkalarining spektrlarida aminoguruh yutilish chiziqlarining past chastotalar tomonga 1659 dan 1653 cm^{-1} gacha siljishi kuzatildi, kompozitsiyadagi texnik uglerod miqdoriining 40% gacha ko'payishi bilan birlamchi amid guruhining yutilish chiziqlari 3205 dan 3192 cm^{-1} gacha siljishi kuzatildi. Olingan natijalar PAA amid guruhining texnik uglerod yuzasida joylashgan kislorodli guruhlar bilan o'zaro ta'sir ko'rsatishini isbotlaydi.

PAA:texnik uglerod kompozit plyonkalarining AKM natijalari aralashadigan moddalar tarkibidagi o'zaro o'zgarishlarni ko'rsatdi. Texnik uglerodagi (200), (20-1), (002), (201), (20-2) va (202) tekisliklarda fazalararo masofa oshadi. $2\Theta=43.5^\circ$ dagi kristall refleks (400), (40-1), (401) tekisliklarga tegishli bo'lib, $2\Theta=36-47^\circ$ mintaqada bir qator reflekslarga bo'linadi. Bu texnik uglerod dastlabki tuzilishining buzilishini tasdiqlaydi.

PAA va uning texnik uglerod bilan kompozitsiyalaridan «NanoNC eS-robots» (NanoNC Co. Ltd firmasi, Korea) qurilmasida shakllantirilgan nanotolalari AKM usulida, tadqiq qilindi (10-rasm).



10-rasm. PAA asosidagi nanotolalarning AKM tasvirlari: a) $2,0\%$ PAA eritmasidan olingan nanotola; b) $0,7\%$ PRAESTOL eritmasidan olingan nanotola; v) va PAA : texnik uglerodli nanotola.

Nisbatan past molekulyar massali PAA asosida shakllantirilgan nanotolalar diametri $20-70 \text{ nm}$ gacha bo'lib, tor hajmli taqsimotiga ega. Yuqori molekulyar massali poliakrilamidning $0,7\%$ eritmasidan esa diametri 300 nm dan 2 mikrongacha bo'lgan keng hajm taqsimotiga ega nanotolalar shakllantirilgan bo'lib, ularning tarkibida o'lchamlari 100 nm dan mikrongacha noaniq shakldagi texnik uglerod zarralari mavjud.

Shunday qilib, PAA makromolekulalari stabilizator vazifasini bajaradigan texnik uglerodning barqaror kolloid eritmaları olindi. Tarkibida texnik uglerod nanozarralarini saqlagan poliakrilamid nanotolalari shakllantirildi. bu esa poliakrilamid asosida elektrospinning usuli bilan murakkab polimer tizimlarning nanotolalarini shakllantirish uchun tanlash istiqbolini ko'rsatadi.

“Navoiyazot” AJda olingan akrilamid eritmasidan noionli flokulyantlar olish. "Navoiyazot" AJda akrilamidning suvli eritmalaridan gomogen radikal polimerlanish usuli bilan gel va quruq kukun shaklida flokulyantlar ishlab chiqariladi. Biroq, olingan PAA ning eruvchanligi bilan bog'liq muammo mavjud. Polimerning yomon eruvchanligi, uning qo'llanilishini cheklaydi. Oldingi bo'limlarda keltirilgan tadqiqot natijalari laboratoriya sharoitida polimerlanish

sharoitlarini o‘rnatishga imkon berdi, buning natijasida yuqori molekulyar massali PAAning suvda eruvchan namunalari olinadi.

Keyingi tadqiqotlar "Navoiyazot" AJda ishlab chiqarilgan akrilamidning suvli eritmasidan suvda eriydigan flokulyantni olish imkoniyatini beradigan texnologiyani ishlab chiqishga qaratilgan. 4-jadvalda "Navoiyazot" AJ zavod laboratoriyasi sharoitida olingan poliakrilamid sintezining maqbul shartlari ko‘rsatilgan.

4-jadval.

Maqbul sintez sharoitlari

T/r	Ko‘rsatkichlarning nomlanishi	Laboratoriya sharoitida olingan maqbul ma'lumotlar
1	Monomer eritmasining zichligi*	1.08-1.09
2	Polimerlanishni o‘tkazishdan oldingi monomer eritmasining pH	8.3 – 8.6
3	Initsiirlanish	-
	Natriy tiosulfat konsentratsiyasi	$(0.5-1.0) \cdot 10^{-3}$ mol/l
	Ammoniy persulfat konsentratsiyasi	$(0.7-1.0) \cdot 10^{-3}$ mol/l
	Temir sulfat konsentratsiyasi **	-
4	Sintez harorati	25-30 ⁰ C
5	Induksion davr	5-15 minut
6	Haroratning oshishi	35 ⁰ C gacha
7	Sintez vaqti	Maksimal qovushqoqlikka erishilgunga qadar reaksiyon aralashmasining holatiga mos kelishi kerak

*Bu zichlikka monomer eritmasini distillangan suv bilan monomer eritmasi /suv = 1/0,2 hajm nisbatida suyultirish orqali erishiladi.

**"Navoiyazot" AJda flokulyant ishlab chiqarish bo‘yicha amaldagi texnologik reglament bo‘yicha polimerlanish jarayonini faollashtiruvchisi sifatida temir sulfatdan foydalanishni nazarda tutadi. Biroq, tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, temir sulfatdan foydalanish polimerlanishning keskin tezlashishiga va polimerning uch o‘lchamli tuzilishini shakllantirishga olib keladi. Shu munosabat bilan biz flokulyantni olishda temir sulfatdan foydalanishni istisno qildik.

Taqdim etilgan sintez shartlari "Navoiyazot" AJda suvda yaxshi eruvchan, yuqori molekulyar massali PAA sintezini amalga oshirishga imkon berdi ("KS va MHP" ishlab chiqarish 701-sexida yangi turdagi mahsulotlarni olishni tashkil etish bo‘yicha texnik yig‘ilish bayonnomasi, "Navoiyazot" AJ boshqaruvi raisining birinchi o‘rinbosari vazifasini bajaruvchisi tomonidan tasdiqlangan).

XULOSA:

“Chiziqli va tarmoqlangan tuzilishli akril monomerleri (so)polimerlarining sintezi” mavzusida falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalar taqdim etildi:

1. Akrilamidning suvli eritmada gomogen radikal polimerlanishi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar model tizimlar asosida suvda eruvchan poliakrilamid olishga imkon beruvchi sintez sharoitlarini aniqlashga imkon berdi. Natijada, konversiya darajasi 85,3% gacha bo‘lgan, chiziqli tuzilishli, yuqori molekulyar massali, suvda eruvchan polimerlar sintez qilindi. Polimerning tuzilishi va molekulyar massasiga harorat va pH muhitining sezilarli ta'sir ko'rsatishi aniqlandi, buning uchun sintez jarayonini 30°C gacha bo‘lgan haroratda va eritmaning muhitini pH= 7-9 oralig‘ida amalga oshirish masadga muvofiq bo‘ladi.

2. Xitozanga akrilamid va akril kislotaning payvand sopolimerlari sintez qilindi va polisaxaridning sopolimer molekulyar massasiga ta'siri o‘rganildi. Bunda tizimga 0 dan 0,2% gacha xitozan qo‘shilganda payvand sopolimerlarning molekulyar massasini $10,7 \times 10^6$ oshirishga erishildi va polimerning suvda yuqori eruvchanligi saqlandi. Ushbu effekt akril kislota va akrilamidning payvandlanishi uchun xos bo‘lib, ehtimol bu xitozan ishtirokida zanjirning o‘sish zonalarida akril monomerleri konsentratsiyasining oshishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

3. Eksperimental va nazariy tadqiqotlar asosida xitozanga akrilamidning payvand sopolimerlanish mexanizmi o‘rganilgan bo‘lib, nazariy hisob-kitoblar 5-uglerod atomidagi O-H bog‘ining yuqori harakatchanligini ko‘rsatdi. Shu bilan birga, yuqori ehtimollik bilan, vodorod atomi polisaxarid amino guruhidan ajralib chiqqanda hosil bo‘ladigan faol markazlarda ham akrilamid polimerlanishi mumkin. Bundan tashqari, IQ-spektrlarida $3100-3600 \text{ cm}^{-1}$ to‘lqin uzunligida keng yutilish sohaslarining paydo bo‘lishi, payvand sopolimerlanish ham $-\text{NH}_2$, ham $-\text{OH}$ guruhlarning almashinishidan yuzaga kelganligini isbotlaydi.

4. Poliakrilamid makromolekularida stabilizator sifatida xizmat qiluvchi texnik uglerodning barqaror kolloid eritmaları olindi. Poliakrilamidning amid guruhlari va texnik uglerod yuzasida joylashgan kislorod saqlovchi guruhlari o‘rtasida mumkin bo‘lgan o‘zaro ta'sir mexanizmlari aniqlandi. Tarkibida texnik uglerod nanozarralari bo‘lgan poliakrilamidnan nanotolalar shakllantirildi, bu esa poliakrilamidnan foydalanib, murakkab polimer tizimli nanotolalarini shakllantirish istiqbolni ochadi.

5. Olib borilgan tadqiqotlar, “Navoiyazot” AJda mavjud bo‘lgan texnologik qurilmalar va ishlab chiqarishning texnologik sxemasidan foydalangan holda, oqava suvlarni tozalash uchun amaliy foydalanish maqsadida texnik xususiyatlarga ega flokulyantni olish shartlarini ishlab chiqishga imkon berdi. Buning natijasida, flokulyant olish uchun laboratoriya reglamenti va standart loyihasi ishlab chiqildi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.02/30.12.2019.К/ФМ/Т.36.01
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ
ПРИ ИНСТИТУТЕ ХИМИИ И ФИЗИКИ ПОЛИМЕРОВ**

ИНСТИТУТ ХИМИИ И ФИЗИКИ ПОЛИМЕРОВ

ЖУМАРТОВА УЛБОЗОР УБАЙДУЛЛАЕВНА

**СИНТЕЗ (СО)ПОЛИМЕРОВ АКРИЛОВЫХ МОНОМЕРОВ
ЛИНЕЙНОГО И РАЗВЕТВЛЕННОГО СТРОЕНИЯ**

02.00.06 - Высокомолекулярные соединения

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ
ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО ХИМИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Ташкент – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций под номером B2024.1.PhD/K721.

Диссертация выполнена в Институте химии и физики полимеров.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (polchemphys.uz) и Информационно-образовательном портале «Ziynet» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель: **Бозоров Нурад Исмаатович**
доктор химических наук, старший научный сотрудник

Официальные оппоненты: **Рафиков Адхам Салимович**
доктор химических наук, профессор
Каримов Аминжон
доктор химических наук, профессор

Ведущая организация: **Ургенчский государственный университет имени Абу Райхана Беруни**

Защита диссертации состоится «10» 06 2025 г. в 14⁰⁰ часов на заседании Научного совета DSc.02/30.12.2019 K/FM/T.36.01 при Институте химии и физики полимеров: (Адрес: 100128, г. Ташкент, ул. Абдулла Кадыри, 7-б. Тел. (99871) 241-85-94; факс: (99871) 241-26-61, e-mail: polymer@academy.uz)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Института химии и физики полимеров за № 46 (Адрес: 100128, г. Ташкент, ул. Абдулла Кадыри, 7б, Тел. (99871) 241-85-94)

Автореферат диссертации разослан «28» 05 2025 года
(протокол рассылки № 2 от «28» 05 2025 года).



S. Sh. Rashidova **С.Ш. Рашидова**
Президент Научного совета по присуждению
ученых степеней, д.х.н., профессор, академик

M. M. Usmanova **М.М. Усманова**
Ученый секретарь научного совета по присуждению
ученых степеней, д.х.н., старший научный сотрудник

A. A. Ataxanov **А.А. Атаханов**
Председатель научного семинара
при научном совете по присуждению
ученых степеней, д.т.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. На сегодняшний день в мире синтез полимеров, имеющих промышленное значение, с использованием методов радикальной полимеризации является важной задачей. Особый интерес представляет использование акриловых мономеров, таких как акриламид и акриловая кислота, для синтеза водорастворимых полимеров. Эти свойства достигаются при использовании окислительно-восстановительных иницирующих систем, что позволяет проводить процесс полимеризации при невысоких температурах.

В настоящее время в мире проводятся научные исследования по синтезу (со)полимеров с заданной структурой и молекулярной массой, а также их физико-химическому анализу с использованием современных методов исследования. В этом контексте получение линейных полимеров с высокой растворимостью на основе акриловых мономеров и их сополимеров, разработка новых типов материалов с высокими эксплуатационными характеристиками, включая нано структурированные материалы, являются актуальными задачами.

